

**YOSH O'QUVCHILARDA KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH:
ZAMONAVIY METODLAR**

Noriboyeva Farangiz Najmuddin qizi

Norimova Jasmina Shavkat qizi

Samarqand viloyati Urgut tumani

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti urgut filiali boshlang'ich
yo'naliishiда o'qiymiz

Annotatsiya: *Mazkur maqolada boshlang'ich ta'llim jarayonida yosh o'quvchilarda kreativ (ijodiy) fikrlashni shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy metodlar yoritiladi. Kreativ fikrlash bugungi kunda global ta'llim tizimining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, yosh avlodda mustaqil fikrlash, muammolarga noodatiy yechim topish, yangilikka intilish kabi ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Maqolada interaktiv usullar, o'yin texnologiyalari, loyihibiy yondashuv va vizual materiallar orqali kreativlikni rag'batlantirish yo'llari tahlil qilinadi. Shuningdek, amaliy misollar va tajriba asosida ta'llim jarayoniga moslashtirilgan metodlarning afzalliklari ham ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *kreativ fikrlash, boshlang'ich ta'llim, zamonaviy metodlar, interaktiv yondashuv, o'yin texnologiyalari, mustaqil fikrlash, loyihibiy metod, ijodiy faoliyat.*

Annotation: *This article discusses modern methods that serve to form and develop creative thinking in young students in the process of primary education. Creative thinking is one of the important directions of the global education system today, helping to form skills such as independent thinking, finding unusual solutions to problems, and striving for innovation in the younger generation. The article analyzes ways to stimulate creativity through interactive methods, game technologies, a project approach, and visual materials. It also considers the advantages of methods adapted to the educational process based on practical examples and experience.*

Key words: *creative thinking, primary education, modern methods, interactive approach, game technologies, independent thinking, project method, creative activity.*

Аннотация: В статье рассматриваются современные методы, способствующие формированию и развитию творческого мышления у младших школьников в период начального образования. Творческое мышление является одним из важных направлений современной мировой системы образования, помогая развивать у молодого поколения такие навыки, как самостоятельное мышление, поиск нестандартных решений проблем и стремление к инновациям. В статье анализируются способы стимулирования креативности с помощью интерактивных методов, игровых технологий, проектного подхода и наглядных материалов. Также рассматриваются преимущества методов, адаптированных к образовательному процессу на основе практических примеров и опыта.

Ключевые слова: *творческое мышление, начальное образование, современные методы, интерактивный подход, игровые технологии, самостоятельное мышление, метод проектов, творческая деятельность.*

Kirish. Zamonaviy ta'lrim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – yosh avlodni mustaqil, erkin va kreativ fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalashdir. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lrim bosqichi bu borada asosiy poydevor bo'lib xizmat qiladi. Chunki ayanan shu davrda bolaning tafakkuri, dunyoqarashi va ijodiy qobiliyatları shakllana boshlaydi. Hozirgi kunda an'anaviy ta'lrim metodlaridan voz kechib, yangicha, o'quvchini faollikka undovchi, fikrlashga yo'naltiruvchi yondashuvlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Ma'lumki, kreativ fikrlash – bu nafaqat san'at yoki adabiyotga oid tushuncha, balki har qanday sohada muvaffaqiyatga erishishda muhim omil hisoblanadi. Shu sababli, boshlang'ich ta'linda kreativlikni rivojlantiruvchi zamonaviy metodlarni tatbiq etish bugungi kun ta'limining dolzarb masalalaridandir.

Kreativ fikrlash – bu mavjud muammolarga noodatiy, original yechimlar topa olish qobiliyatidir. U bolalarda mustaqil fikrlash, yangi g'oyalar ilgari surish, mavjud bilimlarni yangicha kontekstda qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantiradi. "Kreativ fikrlashni o'lhash faqatgina o'quvchilarni solishtirish emas, balki ularning yangi fikrlar yaratish, noan'anaviy yondashuvlar ishlab chiqish qobiliyatini ko'rsatadi."²⁵⁵ Boshlang'ich yoshda bu qobiliyatni rivojlantirish oson va tabiiy kechadi, chunki bolalar o'z tabiatiga ko'ra kuzatuvchan, savol beruvchan va ijodkordirlar. O'qituvchining vazifasi esa shu tabiiy qiziqishni to'g'ri yo'naltirish va rag'batlantirishdan iborat. Bolalar rivojlanishi ijtimoiy munosabatlar va madaniy vositalar orqali amalga oshadi, ularning tafakkuri nafaqat o'quv jarayonida, balki jamiyatdagi o'zaro ta'sirlar orqali ham shakllanadi.²⁵⁶ Interaktiv darslar, guruhlarda ishlash, munozara va savol-javob shaklidagi darslar bolalarni faol ishtirok etishga undaydi. Bunday yondashuvlar bolaning fikrini erkin bayon qilishi va boshqalarning fikriga munosabat bildirishini rag'batlantiradi. Didaktik o'yinlar, rolli o'yinlar va intellektual mashg'ulotlar orqali bolalar bilimlarni o'zlashtirish bilan birga, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. O'yin orqali ta'lum nafaqat samarali, balki zavqli ham bo'ladi. Rasm, xarita, diagramma, komiks yoki kollaj kabi materiallardan foydalanish bolalarning tasavvur doirasini kengaytiradi, ularni mustaqil izlanishga undaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar. Vygotsky, L.S. (*Psiyologiya razvitiya rebenka* (Bolani rivojlantirish psixologiyasi). Mazkur asarda bolalar tafakkuri va ijodiy rivojlanishining psixologik jihatlari tahlil qilinadi. Kreativ fikrlashning shakllanishi to'g'risida nazariy asoslar keltirilgan. Torrance, E. Paul (*Guiding Creative Talent*). Kreativ fikrlashni baholash va rivojlantirish usullari haqida ilk konseptual yondashuvlardan biri. Torrance testlari shu asarda tavsiya etilgan. Runco, Mark A., Acar, Selcuk (*Creativity: Theories and Themes – Research, Development, and Practice*). Kreativlikning nazariyalari, rivojlanish bosqichlari va o'qituvchilarga amaliy tavsiyalar berilgan zamonaviy ilmiy tadqiqotlar. Azizzoxjaeva, Nargiza Nematovna (*Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahurat*). Ta'lum jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash, o'quvchilarning fikrlash faoliyatini faollashtirish metodlari bayon etilgan. Turaev, M. (*Boshlang'ich ta'lum metodikasi*). Boshlang'ich ta'linda dars o'tkazish metodlari, o'quvchilarni faollashtirishga xizmat qiluvchi texnikalar, ijodkorlikni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar keltirilgan.

Begmatov, A. va boshqalar (*O'qituvchining ijodiy faoliyati va kasbiy kompetensiyasi*). O'qituvchining ijodkorlik faoliyatini rivojlantirish hamda kreativ yondashuv asoslarini

²⁵⁵ Torrance, E. Paul, *Guiding Creative Talent*, Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1962.

²⁵⁶ Vygotsky, L.S., *Psiyologiya razvitiya rebenka*, Moskva: Eksmo, 2005.

yorituvchi amaliy qo'llanma. "Boshlang'ich ta'lism metodikasida o'quvchilarga faqat bilimni o'zlashtirish emas, balki mustaqil fikrlashni rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega."²⁵⁷

Mavzuning dolzarbligi: Bugungi tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan globallashuv davrida ta'lism tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri — yosh avlodni yangicha fikrlaydigan, kreativ yondasha oladigan, muammolarni noodatiy hal eta biladigan shaxs sifatida shakllantirishdir. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lism bosqichi bu borada asosiy negiz bo'lib xizmat qiladi. Mamlakatimizda ta'lism sohasida olib borilayotgan islohotlar, yangi avlod o'quv dasturlari va standartlarida ham kreativ fikrlashni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilab qo'yilgan. Bu esa, o'z navbatida, o'qituvchilardan zamonaviy metod va yondashuvlardan foydalanishni, innovatsion fikrlashni rag'batlantirishni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, yosh o'quvchilarda kreativ fikrlashni shakllantirishga xizmat qiluvchi metodlarning o'rganilishi va amaliyotga tatbiqi dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda yosh o'quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy pedagogik metodlar o'rganildi. Tadqiqotda nazariy, amaliy va empirik usullar uyg'unlikda qo'llanildi. Ilmiy-pedagogik, psixologik adabiyotlar, davlat ta'lism standartlari, metodik qo'llanmalar va ilg'or xorijiy tajribalar tahlil qilinib, kreativ fikrlash tushunchasining mohiyati, uni boshlang'ich ta'limga tatbiq etish imkoniyatlari o'rganildi.

Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish orqali kreativ metodlarni qo'llash natijalari tahlil qilindi. Bu bosqichda quyidagi usullar qo'llandi: Kuzatuv: dars jarayonida o'quvchilarning faol ishtiropi, savol-javoblar, ijodiy topshiriqlarga yondashuvi o'rganildi; So'rovnoma: boshlang'ich sinf o'qituvchilari va o'quvchilari o'rtasida o'tkazilib, ularning kreativ metodlarga munosabati aniqlashtirildi; Intervyu: amaliyotchi o'qituvchilar bilan suhbat orqali tajriba almashinuvi amalga oshirildi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga zamonaviy metodlar (o'zin texnologiyalari, guruhli ish, vizual materiallar, loyihamiy faoliyat) asosida darslar tashkil qilindi. Darslardan avval va keyin o'quvchilarning kreativ fikrlash ko'nikmalari Torrance kreativlik testlari asosida baholandi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot davomida o'quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun zamonaviy metodlar (interaktiv usullar, o'zin texnologiyalari, loyihamiy faoliyat) tatbiq etildi. O'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatini baholash uchun Torrance kreativlik testi va sinfdagi o'quv faoliyati kuzatildi. Olingan natijalar quyidagi asosiy tahlil va natijalar orqali aniqlangan. Kreativ fikrlashda o'zgarishlar: Tadqiqot boshlanishida o'quvchilarning kreativ fikrlash darajasi ancha past bo'lib, ularning aksariyati dars jarayonida faqat nazariy bilimlarni yod olishga qaratilgan faoliyatda ishtirop etar edi. Tadqiqotning birinchi bosqichida, ya'ni an'anaviy metodlar qo'llangan darslarda, o'quvchilarning ijodiy yondashuvi va savol-javoblar orqali mustaqil fikrlash ko'rsatkichlari kam bo'lgani kuzatildi.

Biroq, zamonaviy metodlar, xususan, o'zin texnologiyalari va loyihamiy faoliyat qo'llangandan so'ng, o'quvchilarning kreativ fikrlash ko'nikmalari sezilarli darajada rivojlandi. Test natijalari va so'rovnomalarga ko'ra, o'quvchilarning ijodiy yondashuvi, savol berish, masalalarni hal qilishdagi noodatiy yondashuvlari 40% ga oshdi. Boshqacha aytganda, darsda faqat bilimni o'zlashtirgan o'quvchilarning ulushi 30% ga kamaydi. O'quvchilarning

²⁵⁷ Turaev, M., *Boshlang'ich ta'lism metodikasi*, Toshkent: O'qituvchi, 2019.

faoliyatdagi ishtiroki: Interaktiv darslar va guruhli ishlash metodlari o'quvchilarning faoliyatda ishtirokini faollashtirdi. Tadqiqotda ko'rsatilganidek, kreativ metodlarni qo'llash orqali o'quvchilarning birgalikda muammo hal qilish va bir-biriga yordam berish ko'nikmalari rivojlandi. O'quvchilarning har bir darsga bo'lgan qiziqishi oshdi, ular o'z fikrlarini erkin ifodalashni o'rgandilar. Bunday metodlarning qo'llanilishi natijasida, o'quvchilarning yodlash va takrorlashga asoslangan metodlardan ijodiy, tanqidiy fikrlashga yo'naltirilgan metodlarga o'tish ko'rinishida sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Amaliy loyihamalar va natijalar: Loyihaviy faoliyatning qo'llanilishi o'quvchilarning nafaqat ijodiy fikrlashini rivojlantirdi, balki mustaqil ish faoliyatini tashkil etishda ham katta yordam berdi. Tadqiqot davomida o'quvchilarga "Mening orzu mifiktabim", "Tabiat mo'jizalari" kabi loyihamalar asosida faoliyatlar berildi. Ushbu loyihamalar davomida o'quvchilar o'z g'oyalarini amalda ishlab chiqish, guruhlarda ishlash va natijalarini taqdim etish ko'nikmalarini egalladilar.

Natijalar va statistik tahlil shuni klo'rsatadi, Tadqiqotning asosiy natijalari shundan iboratki, kreativ metodlar qo'llangan sinflarda o'quvchilarning kreativ fikrlash darajasi ancha yuqori bo'ldi. Test natijalariga ko'ra, kreativlik darajasi 65%-70% gacha oshdi. Interaktiv va o'yin texnologiyalarining qo'llanilishi o'quvchilarning ijodiy ishlash, yangi g'oyalar yaratish va ularni taqdim etish qobiliyatini rivojlantirdi. So'rovnomalari va intervyular orqali o'quvchilar metodlarning qiziqarli va samarali ekanligini ta'kidladilar. Bundan tashqari, o'qituvchilardan olingan javoblar natijasida, ular kreativ metodlarni darslarga joriy etishning samaradorligini yuqori baholadilar. 85% o'qituvchilar kreativ metodlarning o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, guruhda ishlashga va yangi g'oyalar yaratishga rag'batlantirishda foydali ekanligini qayd etganlar.

Xulosa va takliflar: Yosh o'quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirish - bu nafaqat ta'lism jarayonining dolzarb talabi, balki kelajakda raqobatbardosh, mustaqil va ijodkor avlodni tarbiyalashning muhim omiliidir. Boshlang'ich ta'lum bosqichida o'quvchilarga ta'lum berish jarayoniga interaktiv, o'yin, loyihamiy va vizual metodlarni tatbiq etish ularning darsga qiziqishini oshirib, mustahkam bilim va ko'nikmalarni shakllantiradi. Kreativ fikrlashni shakllantirishda o'qituvchining yondashuvi, darsni tashkil etish uslubi va pedagogik mahorati katta rol o'ynaydi. Shunday ekan, ta'lum tizimida zamonaviy metodlarni keng joriy etish orqali biz iqtidorli, izlanuvchan va ijodiy fikrlovchi shaxslarni kamol toptirish imkoniga ega bo'lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Vygotsky L.S. *Psixologiya razvitiya rebenka*. – M.: Eksmo, 2005.
2. Torrance, E.P. *Guiding Creative Talent*. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1962.
3. Turaev M. *Boshlang'ich ta'lum metodikasi*. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
4. Azizzoxo'jaeva N.N. *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat*. – Toshkent: TDPU, 2020.
5. Runco M.A., Acar S. *Creativity: Theories and Themes: Research, Development, and Practice*. – Elsevier, 2012.
6. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. *Boshlang'ich ta'lum davlat standarti*. – Toshkent, 2022.